

## PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

2022 yil «20» 9

421-12-170-  
SES/2022-son

Bog'ot shaharchasi

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan «Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, raxbari B.Niyazov bir tomondan, keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan «Sayxun Qurilish» x/k nomidan nizom asosida ish yurituvchi raxbari S.Xudayberganov ikkinchi tomondan Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi binosini joriy tamirlash bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

### I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi;

- ijro xujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;
- qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;
- vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;
- berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;
- shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limini joriy ta'mirlash ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha joriy ta'mirlash ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda 127 000 000 (Bir yuz yigirma yeti million) so'mni tashkil etadi.
4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:
  - qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
  - ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
  - ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.
5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:
- barcha ishlarni mazkur shartnomada xamda unga 2-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;
  - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;
  - qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
  - Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'grisida xabardor qilish;
  - qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muxitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
  - qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
  - mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'grisidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;
  - qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
  - qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'grisida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.
  - mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'lik xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan o'zining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablag'larini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun unumli ishlatish majburiyatini oladi.
9. Pudratchi ob'ektni foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitel'naya dokumentatsiya) to'lik xajmda taqdim qiladi.
10. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

#### V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:
- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;
  - ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;
  - Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;
  - moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
  - Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
  - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;
12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan uz majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'lik mulkiy javob beradi.

#### VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagandan va G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik kuchga kiradi.
14. Pudratchi mazkur shartnomaga 2-ilova qilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.
15. Ob'ektni 2022 yil oktabr oyida foydalanishga topshirilishi belgilanadi.

## **VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR**

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30% miqdorida avans o'tkazadi, bu 38 100 000 (O'ttiz sakkiz million bir yuz ) so'mni tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maqsadli berilgan mablag'lar o'ttiz bank kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-illovalar)
19. Buyurtmachi tomonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin haqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablaglar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'yning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'grisidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'grisidagi ma'lumotnoma xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varaq-faktura» asos bo'ladi.
23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

## **VIII. ISHLARNI BAJARISH.**

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.
25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siksiz tanishish xuquqiga egadir.
26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.
27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.
28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.
29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.
30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi,

xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'lik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'grisidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## **IX. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) XOLATLARI.**

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'lik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xalidir.

## **XI. KAFOLATLAR.**

34. Pudratchi:-barcha ishlarni to'lik xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqligini;

- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

## **XII. SHARTNOMANI BEKOR KILISH.**

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

- ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortik muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

- Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib quyilganda;

- Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;

qonun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.
39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.
40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

### XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, boshqa qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.
42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:
- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida jarima to'laydi;
  - buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch bank kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 0,4% miqdorida jarima to'laydi;
  - shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 0,4 % miqdorida jarima to'laydi;
  - shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 0,4% miqdorida jarima to'laydi;
43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:
- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0,5% miqdorda penya to'laydi.
  - Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 0,5% miqdorida jarima to'laydi;
  - Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida jarima to'laydi;
  - ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 0,5% miqdorida jarima to'laydi;
  - Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5% miqdorida jarima to'laydi.
44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxonaga atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'grisidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.
45. Bir tamoning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tomon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.
46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.
47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha aktseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

### XIV. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat qilishlari mumkin.

## XV. ALOXIDA SHARTLAR

49. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari uz kuchini yo'qotadi.
50. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.
51. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.
52. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bulishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.
53. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xaq to'lashni kechiktirishga xaqlidir.
54. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. to'grisida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.
55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.
56. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan xamda Gaznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va bu shartnoma 31.12.2022 yilgacha amal qiladi.
57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lib 2 nusxada tuzildi.

## XVI.KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

58. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.
59. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.
60. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklifetilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiyoyokihar qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini, (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi.
- Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasdigi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.
61. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.
62. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart.
- Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## XVII. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

**"PUDRATCHI"****"BUYURTMACHI"**

<b>"Sayxun Qurilish" x/k</b>	<b>Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi</b>
Manzil: Xonqa tuman Madir qishlog'i	Manzil: Bog'ot tuman Toshkent ko'cha 38 – uy
Tel./faks: 99 – 500 – 44 – 74	Tel./faks: 31-51-818
x/r: 20208000000448973001	sh/h: 100022860332047074110054001
STIR 303248621 OKONX 61110 MFO 00549	STIR 200426215 OKONX 91531 G'aznachilik bo'linmasi nomi Respublika moliya vazirligi Yagona g'azna xisob varag'i G'azna h/v 23402000300100001010
Bankning nomi: Mikrokreditbank ATB Xorazm viloyati mintaqaviy filiali "Xonqa" BXM	Bankning nomi: Markaziy bank Toshkent MFO 00014 INN: 201122919
Rahbar  S.Xudayberganov	Rahbar  B.Niyazov



## 1-ilova

2022-yil "30" sentabrdagi "421-12-170-SES/2022" sonli shartnomasiga

Obyekt joriy ta'mirlashning moliyalashtirish grafigi  
 Xorazm viloyati Bog'ot tuma SEO va JSX bo'limi binosini joriy ta'mirlash  
 (obyekt nomi)  
 bo`nak (avans) to`lash va joriy moliyalashtirishni hisobga olgan holda

Moliyalashtirish shartlari	Qurilish vaqti 2022 yil											
	Qurilish sanasi											
	Yanvar	Fev -ral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr
30 % xajmdagi avans									30			
70 % xajmda joriy moliyalashtirish										70		



2 - Ilova

2022-yil 20 sentabrdagi "421-12-140-SES/2022" sonli shartnomasiga

Obyektning qurilish ishlarini bajarish grafigi  
Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi SEO va JSX bo'limi binosini joriy ta'mirlash  
(obyekt nomi)

T/r	Ishlar nomlanishi	Ishlarni boshlash sanasi	Ishlarni tugatish sanasi
1	ПРОЕМЫ	20.09.2022	14.10.2022
2	КАБИНЕТ РУКОВОДИТЕЛЯ	20.09.2022	14.10.2022
3	ФАСАД	20.09.2022	14.10.2022
4	КРЫЛЬЦО ГЛАВНОГО ВХОДА	20.09.2022	14.10.2022
5	КОЗЫРОГ	20.09.2022	14.10.2022
6	ПАНДУС	20.09.2022	14.10.2022
7	ОТМОСТКА ИЗ БРУСЧАТКИ	20.09.2022	14.10.2022
8	ПЛАШАДКА ИЗ БРУСЧАКИ	20.09.2022	14.10.2022
9	НАРУЖНОЕ ОСВЕЩЕНИЯ	20.09.2022	14.10.2022

Izoh: Qurilishning umumiy jadvalida ishlarni umumiy dasturi (ob'ektning xususiyatlari hisobga olingan holda) va ularni bajarish muddatlari ko'rsatiladi. Qurilishning umumiy jadvali pudratchining ishlarni va ma'lum uchastkalarni belgilangan muddatda yakunlash va qurilayotgan ob'ektda xavfsiz va uzluksiz ishlar olib borish majburiyatiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY  
XULOSAN<sup>o</sup> DV10040442**

**1. Loyihaning turi:**Shartnoma.

**2. Loyihaning nomi:** «Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi» nomidan nizom asosida ish yurituvchi, rahbari B.Niyazov bilan “ Sayxun Qurilish” x/k nomidan nizom asosida ish yurituvchi rahbari S.Xudayberganov o'rtasidagi Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi binosini joriy tamirlash boyicha mazkur pudrat shartnomasi to'g'risida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:** SEO va JSXning Xorazm viloyati boshqarmasi Bog'ot tumani bo'limi, loyiha 19.09.2022-yilda ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

**X U L O S A :**

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog'ot tuman Yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:**



**U.Xudaynazarov  
20.09.2022-yil**

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 147795 на приобретение Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi binosini joriy ta'mirlash**

Способ проведения электронный

Дата 15.09.2022

Время рассмотрения 15.09.2022 18:07

Конкурсная комиссия Богот туман Давлат санитария-эпидемиологик осойишталик агентлиги, (Далее - Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	NIYAZOV BEKZAD SHOMURATOVICH	Rahbar	Bog'ot tumani SEO va JSX
<b>Секретарь комиссии</b>	ABDURAHIMOV DAVRONBEK OTAXONOVICH	Xo'jalik mudiri	Bog'ot tumani SEO va JSX
<b>Член комиссии</b>	JUMANIYOZOV DILMUROD AMINBOYEVICH	Entonolog	Bog'ot tumani SEO va JSX
<b>Член комиссии</b>	MADRIMOV MANSURBEK RUSTAMOVICH	Shafyor	Bog'ot tumani SEO va JSX
<b>Член комиссии</b>	XUDAYBERGENOVA NARGIZA YULDASHBAYEVNA	Vrach bakterolog	Bog'ot tumani SEO va JSX
<b>Член комиссии</b>	YUSUPOV ODAMBOY ZARIPBOYEVICH	Vrach yordamchisi	Bog'ot tumani SEO va JSX

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.09.2022 года № лота 147795.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту нежилых зданий</b>
Подробное описание	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	127 515 301.00
Стартовая сумма	127 515 301.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Оферант тўғрисида умумий маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Кархона устави, гувоҳномаси, ҚҚС гувоҳномаси(фаол бўлиши керак),бугунги санага асосий фаолият тури, my.gov.uz сайтидан QR код билан тасдиқланган устав жамғармаси ва таъсисчилари ҳамда кархона тўғрисида умумий маълумот.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	5	127000000	5	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	5	127000000	5	Экспертная		

Критерий №2 Танловдаги объектга ўхшаш объектларда охирги уч йиллик иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачилар билан тузилган шартномалар рўйхати, бажарилган ишларни кабул килиш топшириш далолотномаси санаси ва суммаси жадвал кўринишда буюртмачи ташкилотлар томонидан мухри билан тасдиқланган ва имзоланган кўринишда илова килинади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	5	127000000	4	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	5	127000000	5	Экспертная		

Критерий №3 Банкдан карзи ва картатека 2 йуклиги тугрисида малумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Малумотлар элон куйилган санадан кейин олинган ва Банкдан тасдиқланган булиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	20	127000000	15	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	20	127000000	15	Экспертная		

Критерий №4 . Танлаш иштирокчилари томонидан коррупция кўринишларига йўл қўймаслик бўйича ариза тақдим этиш мажбурийлиги ҳақидаги талаб

Тип: Текстовое значение

Описание: Ариза тақдим этиш мажбурий

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	5	127000000	5	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	5	127000000	5	Экспертная		

Критерий №5 Молиявий кўрсаткичлар тўғрисида маълумот. 2021 йил учун йиллик баланс ва молиявий натижалар ва фойда солиғи ҳисоботлари

Тип: Текстовое значение

Описание: Объектнинг буюртмачи белгиланган бошланғич нархнинг 50% гача миқдордаги айланма маблағлар мавжудлиги хизмат килувчи банк томонидан тасдиқланган ҳамда шу санага объектнинг бошланғич нархнинг камида 10 % маблағи ҳисоб рақамда мавжудлиги тўғрисидаги маълумотнома асосида баҳоланади маълумотнома танлов эълон қилингандан кейин олинган бўлиши шарт

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	10	127000000	7	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	10	127000000	7	Экспертная		

Критерий №6 ВМнинг 2021 йил 55-сон қарори билан тасдиқланган "Курилиш соҳасида танловларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисида" ги низом талабларидаги рейтинг кўрсаткичларига эга бўлган ташкилотлар иштирок этишлари шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Рейтинг кўрсаткичларига мувофиқ юқорида кўрсатилган жорий таъмирлаш ишларига, юқори тажрибага эга бўлган ташкилотларни жалб этиш мақсадида баллар қуйдагича ҳисобга олинади (хар-бир рейтинг курсаткичи учун 2 баллдан. (рейтинг С дан кам булмаслиги, камида 7 йил иш фаолияти булсин)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	10	127000000	7	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	10	127000000	7	Экспертная		

Критерий №7 Ташкилот ходимларининг мутахассислик бўйича олий маълумотга егаллиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилот ходимларининг қурилиш соҳасидага иш стажи , маълумоти , олий маълумотли мутахассислигига қараб 1 дан 7 гача бал ҳисобланади. Раҳбар қурилиш соҳасига доир маълумотга эга бўлган, стажи камида 7-йил ва ундан юқори бўлиши тавсия қилинади

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	10	127000000	5	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	10	127000000	5	Экспертная		

Критерий №8 Қурилиш майдонини кўрганлик тўғрисидаги маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Буюртмачи томонидан беркитилган масул шахс билан биргалиқда иш хажими ва хусусиятини тўлиқ ўрганганлиги(белгиланган шакилда) лойҳа - смета хужжатлари мос келиши тўғрисида маълумот маъсул ходим ва оферант вакили имзоси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	20	127000000	14	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	20	127000000	10	Экспертная		

Критерий №9 Ишларни бажариш муддати

Тип: Текстовое значение

Описание: Ишларни бажариш муддати курсатилган кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП "Сайхун курилиш"	15	127000000	11	Экспертная		
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	15	127000000	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	127 515 301.00	127 000 000.00 UZS	127 000 000.00	00.00	127 000 000.00	15.09.2022 11:39:59	10
ЧП "Сайхун курилиш"	127 515 301.00	127 000 000.00 UZS	127 000 000.00	00.00	127 000 000.00	15.09.2022 11:15:09	10

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
TALABA OMAD SERVIS MCHJ	62.1	10	72.1
ЧП "Сайхун курилиш"	65.7	10	75.7

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 147795 от 15.09.2022 года на приобретение Bog'ot tumani SEO va JSX bo'limi binosini joriy ta'mirlash определила победителем:

ЧП "Сайхун курилиш"  
303248621

и резервный исполнитель: TALABA OMAD SERVIS MCHJ (303439390)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	NIYAZOV BEKZAD SHOMURATOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	JUMANIYOZOV DILMUROD AMINBOYEVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	MADRIMOV MANSURBEK RUSTAMOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XUDAYBERGENOVA NARGIZA YULDASHBAYEVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	YUSUPOV ODAMBOY ZARIPBOYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП